

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH METODIKALARI

Xamroqulova Nigina Azamqulovna

Samarqand Davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik yoshdan boshlab, o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatish, ularni zamon bilan hamnafas qilish, bolalarni zeriktirmasdan, yangi tillarga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otish, shu bilan birga ushbu jarayonda pedagogning muhim roli haqida.

Kalit so'zi: xorijiy til, pedagog, metodika, tinglash, nutqni rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim

Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'z ona tilidan tashqari, boshqa tillarda ham gaplasha olish, tushuna olish davr talabiga aylanib bormoqda. Shu sababdan ham, xorijiy tillarga bo'lgan e'tibor juda yuqori darajada va bu boshlang'ich ta'limdan yo'lga qo'yilgan. Sababi har bir bilim va ko'nikmaning zamirida kichik yoshlikda olingan ta'lim yotadi. Xorijiy tillarni o'rgatishda esa o'qituvchi ya'ni pedagog roli muhim ahamiyatga ega. Til o'rganish yosh o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanishi lozim. Chunki, qiziqqan, xoxlagan narsagagina intilish yuqori bo'ladi. Hozir esa bu borada olib borish mumkin bo'lgan bir qancha metodikalar bilan tanishamiz.

1. Tactile. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xorijiy tilni o'rgatishning eng samarali usuli bu teginish, tatib kórish, his qilish usulidir. Va bu zamonaviy tilda „tactile“ usuli deb araladi. Oddiy olmani oladigan bólsak: o'quvchi uni kóradi, ushlay oladi va tatib kóradi. Bu orada, uning boshqa tilda nomlanishini, rangini, tamini va shaklini qanday aytilishini órganadi, eslab qolishi ham osonlashadi.

2. Tinglash. Bundan tashqari, yangi tilni órgatar ekanmiz, tinglashni órgatish juda muhim. Ya'ni, chet tilidagi nutqni quloq orqali idrok etish o'quvchidan maksimal darajada e'tibor talab qiladigan murakkab jarayon. Buni biz pedagoglar, qiziqarli qo'shiqlar orqali o'quvchilar ongiga singdirishimiz mumkin, va shu bilan birga bu orqali o'quvchi yangi tilga moslasha boshlaydi.

3. She'rlar. Qaysi til bo'lmasin unda ravon gaplashish juda muhim. Nutqning ravshanligiga erishishning eng yaxshi usuli esa, o'quvchilarga o'zlarining yoshlariga mos she'rlar o'rgatish. She'r yodlatish nutqni ravon qilib, xotirani ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini, ya'ni qiziqishlari endigina rivojlanayotgan bolalarni xoxish-istaklarini yòqqa chiqarmasdan, ularga xorijiy tillarni órganish nimaga zarurligini órgatish, va buni qiziqarli, interfaol usullar bilan bajarish óqiruvchi pedagogning vazifasidir. Zero, „Kelajak yoshlar qòlidadir.“

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaniyozova. H "bolalarga til o'rgatish metodikasi" Fled.uz
2. Romanova. L. A „Ingliz tilini o'qitish metodikasi"2022-yil
3. Ahmedova. D.,„Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini o'rgatish metodikasi"